



THE PLACE OF ZAFARAN (CROCUS SATIVUS L.) IN THE TREATMENT OF ABU ALI IBN SINO

Ernazarova M.SH. ¹, Komila Eshonqulova ²

Marxabo Usmonova Balxiyevna ³, Egamberdiyeva X.X. ⁴

^{1,2} Assistant of the Department of Pharmacology

³ Samarqand Medical Institute, Assistant Pharmacognosy

⁴ 3rd year student of SamMI Faculty of Pharmacy

<https://doi.org/10.5281/zenodo.4744878>

ARTICLE INFO

Received: 1st May 2021

Accepted: 5th May 2021

Online: 10th May 2021

ABSTRACT

The healing properties of saffron in Abu Ali ibn Sina's Laws of Medicine

KEY WORDS

camphor cakes, chaff, bon oil, citron oil, golia, farbiyun, rum hyacinth

ABU ALI IBN SINO TABOBATIDA ZA'FARON (CROCUS SATIVUS L) NING O'RNI

Ernazarova M.SH. ¹, Komila Eshonqulova ²

Marxabo Usmonova Balxiyevna ³, Egamberdiyeva X.X. ⁴

^{1,2} Farmakologiya kafedrası assistenti

³ Samarqand tibbiyot instituti, Farmakagnoziya fani assistenti

⁴ SamMI Farmatsiya fakulteti 3-kurs talabasi

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 1-May 2021

Ma'qullandi: 5-May 2021

Chop etildi: 10-May 2021

ANNOTATSIYA

Abu Ali ibn Sinoning "Tib qonunlari" asaridagi za'faronning shifobaxsh xususiyatlari

KALIT SO'ZLAR

Kafur kulchalari, xafaqon, bon yog'i, sitron yog'i, goliya, farbiyun, rum sumbuli.

Tabobat olami yuragi bo'lgan buyuk olim, sharq mutafakkiri Abu Ali ibn Sino o'z faoliyatida juda ko'p o'simlik giyohlardan foydalangan. O'zining oltin xazinasiga za'faron ham o'zining oltin o'rniga ega o'simliklar sarasiga kiritilgan. O'simlikning ko'plab davo ekanligini takidlash bilan birga

uning davolash uchun ishlatish miqdorlari haqida ham ma'lumotlarni bergan.

Siydik sifatiga qarab kasalliklar haqida xulosa chiqarishda ertakabki uyqudan turgach siyishgacha suv ichmaslik, ovqat yemaslik, ranglantiruvchi (za'faron, anor kabi mahsulotlar) yemaslik kerak. Ular siydikni



qizil yoki sariq rangga bo'yaydi, sabzavotlar esa siydikni yashil rangli qilishni ta'kidlaydi.

Za'faron yurak qon-tomir tizimiga ta'sir etuvchi issiq dorivor o'simlikdir. Sovuqlik yurak dorilari moddasining og'irligi, singishning kamligi, tabiatning singishga emas, to'xtab qolishga moyilligini bilganliklaridan yurak issiqlik dorilari bilan aralashtirib ishlatganlar [1; 95-96]. Shunda ular tabiatning sovituvchi dorilarni yurakka yetkazishga yordamlashadi. Masalan ular za'faronni kafur kulchalarining hamma tarkiblariga aralashtiriladilar. Shunda boshqa qo'shimchalarni za'faron yurakka o'kazadi. So'ngra tabiiy kuch za'faronni yurakka qaytarib ruh bilan mashg'ul qiladi; sovituvchilardan esa yurak mijozini mo'tadil qilish uchun foydalaniladi bunday qilish nuqul sovituvchi dorilarni ishlatib keyin ularning yo'l boshida to'xtab qolib, o'ta olmay turishlaridan ko'ra foydaliroqdir. O'zi bilmasdan, qadimgilarning xatosini tuzataman deb kafur kulchalariga za'faronni qo'shmaydigan tabiblar kafur kulchalarining foydasini kamaytirib qo'yadilar [1;102-103].

Xafaqon-yurakka aziyat beruvchi, yurakning o'zida, yoki uning g'ilofida yo yurakka u bilan yonma-yon turgan va hamkor a'zoldan keladigan, har bir narsa sababli yurakda paydo bo'ladigan uchganga o'xshash bir harakatdir. Xafaqon goho moddadan, goho moddasiz (sodda) mijozdan, goho shishdan, goho uzluksizlikning buzilishidan, ba'zan esa chetki biron bir sababdan va qattiq seskanish (qo'rqish) dan paydo bo'ladi. Xafaqon bo'lgan kishi yoqimli, xushbo'y narsalarni o'zi bilan olib yurishi kerak. Issiq xafaqonli kishi o'sha narsalarga gul, kofur, sandal va sovuqlik yog'larni ko'piroq qo'shadi. Mushk, qaramfil va za'faron dan bir oz aralashtiriladi. Kishining mijozni sovuq bo'lsa mushk, anbar, bon yog'i, sitron yog'i, kofur suvi, goliya va boshqalar foydalidir [2;89-91].

Shaqiqa (migren) kassaligi-bu boshining bir tomonidan qo'zg'aladigan doimiy og'riq bo'lib, bosh kosasining ichida, ba'zan bosh kosasini sirtidan o'rab turuvchi pardada og'riq bo'ladi. Bunda za'faronni- peshonaga surtish kuni foydadir [1;25-27].

Bola bo'lmaslikning sababi-er urug'idan yoki xotin urug'idan yosh bachadon a'zolari yoki erlik olati a'zolari va urug' olatlaridan bo'ladi. Bunda ham yaxshi shamcha: sumbul, za'faron, mastaki, murr, omila shirasi, kunduz qiridan olinib, rum sumbuli yog'i bilan shamcha qilish foydalidir.

Haddan tashqari qaltirash, et uvushib xurpayish va sovuq yeyishga qarshi govshir, Eron savragi, boldirg'on. Kermon zirasi, petrushka urug'i va murchlarning har biridan bir yarim misqoldan, mingdevona urug'i, za'faron, aristoloxiya, sunduz siri, farbiyun, o'tlarining har biridan bir misqoldan olib, asal bilan so'riladi. Buning bir ichimi bir funduq barobarida bo'ib, juda issiq suv bilan ichiladi [2;66-67].

Qavsus deb ataladigan kuydiruvchi istimada, qonda bo'ladigan istimada, balg'amdan paydo bo'ladigan kunduzgi va kechqurungi istimalarda, istima ich surishi bilan kelsa, kamdan-kam to'rt kunda bir uchraydigan istimada za'faron damlamasi foydalidir. Vabo, chechak, qizamiq kasalliklaridagi istimalarida ham natija beradi. Ba'zan qizamiq bilan kasallangan bemorga za'faron hidlatiladi [2;84-85].

Flegmoniyani davolashda ham ishlatiladi. Za'faron og'riq qoldirish xususiyatiga ham egadir. Qolaversa kuygan terini davolashda surtma yaxshi natijaga egadir. Suyaklarni o'stirish xususiyatiga ega ham.

Nahorda sovuq suv ichish yoki hammomdan keyin, yoki jinsiy aloqadan keyin ichilsa mijoz bo'ziladi va istisqo kasalligi xavfi tug'iladi. Bunda za'faron damlamasi koni foydadir [2;149=151].



Chechak bo'lgan bemorning yaralari yetilsa (kami bilan yeti kunda) yetilgan joyga tuz qo'yish zarur ishdir. Buni za'faron solib qilingan namakob suv bo'lsa, foydasi juda kattadir. Chechak quriy boshlaganda chuchukmiya barglari bilan biroz za'faron qo'shib surkalsa, yaxshi natija beradi [2; 116-117.].

Ushbu o'simlikning g'ayritabiyy jihati o'simlik kemiruchi (sichqon,kalamush)lar umriga nuqta quyadi. Bundan tashqari o'simlik quydagi xastaliklarga ham davodir: Miya faoliyatining aktivligini yaxshilaydi (bosh miya to'qimalarini o'stiradi,xotirani mustahkamlaydi);

Nevrozdan forig' qiladi; Bosh og'rig'i (migren) va uyqusizlikdan xalos etadi;Oshqozon-ichak faoliyatini me'yorga keltiradi; O'shqozon osti bezi faoliyatini yaxshilaydi; Ortiqcha o't suyuqligi ajralishidan xalos etadi; Buyrak va qovuqni davolaydi (asak aralshtirilgan za'faron buyrak va qovuqdagi toshlarini maydalaydi);

Antioksidant ta'sirga ega (energetic modda almashinuvini yaxshilaydi,zararli moddalarni organizimdan chiqarib yuboradi); Modda almashinuvini yaxshilaydi; Organizmni quvvatlaydi; Ko'rish qobilaytini tiklaydi, ko'z to'r pardasidagi illatlarni davolaydi; Ereksiyani yaxshilaydi; Hayz siklida og'riqni yengillashtiradi; Terining kuygan va shish paydi bo'lish holatlarida ularni davolaydi; Allergiyadan xalos etadi; Ichkilikbozlik illatidan xalos etadi; Butun organizimni yoshartiradi; Organizmdagi radiatsiya darajasini pasaytiradi.Onkologik kasalliklarni davolashda (xatto kasallikning oxirgi bosqichida saraton o'simtlariga qarshilik ko'rsatadi va ularning hujayralari o'sishini to'xtatadi).

Xulosa: Xulosa qilib aytganda,bu o'simlik Jannat ne'matlaridan biri ekanligi yuqoridagi ma'lumotlardan o'z aksini topgan desak mubolag'a bolmaydi.Dorivor o'simlikni kishi salomatligi uchun kundalik turmushida o'z aksini topilishi lozim demakdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Abu Ali ibn Sino "Tib qonunlari" 1 tom Fan nashriyoti-1980.
- 2.Abu Ali ibn Sino "Tib qonunlari" 2 tom Fan nashriyoti-1980.
- 3.Internet saytlari. Telegram massager @saffron.kanal.